

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>F.B.Eshqurbanov, A.X.Raximov, X.X.Xudoqulov, M.R.O'ralova</b>	
Tuproqlarda uchraydigan organik uglerod miqdorini "Walkley-black" usuli yordamida aniqlash .....	130
<b>Sh.B.Mamatova, M.J.Qurbanov</b>	
Ikkilamchi polietilen chiqindisi asosidagi polimer kompozitsion materiallarning zichligini gidrostatik tortish usulida o'rganish .....	135
<b>Н.И.Файзуллаев, И.И.Мамадолиев, М.Х.Арипова</b>	
Oчистка природного газа от сероводорода сорбентами на основе цеолита.....	140
<b>M.T.Rasulov, S.B.Murodova</b>	
Olovga chidamli qoplama materiallarining zamonaviy holati, maqsadi va rivojlanish tendentsiyalari.....	146
<b>Г.А.Абдуллаева, С.С.Муродов, Ш.Ш.Даминова, Ш.Ш.Тургунбоев</b>	
Синтез и исследование комплексного соединения Zn(II) с 2-меркаптобензтиазолом .....	153
<b>М.Е.Ziyadullayev, R.K.Karimov, S.X.Adilboyev</b>	
2-al mashgan 3(h)-xinazolin-4-on hosilalari sintezi va ularni nitrolash reaksiyalari .....	161
<b>H.R.Rahimova, A.A.Ibragimov</b>	
<i>Phlomoides speciosa</i> o'simligining mikroelementlar tarkibi va vitaminlari.....	168

## BIOLOGIYA

<b>M.T.Isag'aliyev, G.Yuldashev, M.V.Obidov, D.E.Djurayeva, T.X.Shermatov</b>	
Bo'z tuproqlar va tabiiy dorivor o'simliklarda elementlar biogeokimyosi.....	173
<b>Z.A.Jabbarov, N.Sh.Sultonova</b>	
Fitoremedatsiya qobilyatiga ega o'simliklar va ularning turlari .....	180
<b>M.R.Shermatov</b>	
Farg'ona vodiysi agroekotizimlari tangachaqanotli hasharotlarining rivojlanish sikllari va fenologik xususiyatlari .....	185
<b>S.M.Xaydarov, J.G'.Raximov</b>	
Mikrosuvu'tlarini – tabiiy ozuqa manbai sifatida baholash .....	192
<b>G.M.Zokirova</b>	
Janubiy Farg'ona hududi koxsinellid qo'ng'izlari ( <i>Coleoptera: Coccinellidae</i> ) ning bioekologiyasi .....	201
<b>D.P.Jabborova, Z.A.Jabbarov, M.Dustova</b>	
Bamiya barglaridagi plastid pigmentlar miqdoriga biochar va mineral o'g'itlarning ta'siri .....	205
<b>Z.A.Jabbarov, T.Abdraxmanov, Sh.Z.Abdullayev, D.A.Yagmurova</b>	
Qurg'oqchilik omili ta'sirida tuproq unumdonlik ko'rsatkichlarining o'zgarishi.....	211
<b>M.R.Shermatov, M.M.Muhammedov</b>	
Farg'ona vodiysi agroekotizimlari bargo'rар kapalaklari ( <i>Lepidoptera, Tortricidae</i> ).....	221
<b>I.I.Musayev, A.T.Turdaliyev</b>	
Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarda makroelementlarning geokimyoviy xususiyatlari .....	227
<b>S.Sh.Axmadjonova</b>	
Farg'ona vodiysi sharoitida no'xat donxo'ri ( <i>Bruchas pisorum L.</i> )ning ayrim biologik xususiyatlari va zarar keltirishi.....	231
<b>E.A.Botirov</b>	
<i>Agrotis obesa</i> Boisduval, 1829 kapalagining ( <i>Lepidoptera: Noctuidae</i> ) morfologiyasi va bioekologik xususiyatlari .....	234
<b>H.X.Salimova</b>	
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani sug'oriladigan tuproqlarining tarkibi va xossalari .....	239

## GEOGRAFIYA

<b>R.T.Pirnazarov, Sh.N.Axmadjonova</b>	
O'rta Osiyo to'g'onli ko'llarining geografik tarqalishi va ularning xavflilik darajasini baholash masalalari .....	246
<b>K.O.Daljanov, Sh.B.Qurbanov</b>	
Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi va uni rivojlantirish imkoniyatlari .....	254
<b>A.A.Xalmirzayev, U.T.Egamberdiyeva</b>	
Mintaqa qishloq xo'jaligini rivojlantirish istiqbollari .....	260



УО'К: 595.78:591.4/5

**AGROTIS OBESA BOISDUVAL, 1829 KAPALAGINING (LEPIDOPTERA: NOCTUIDAE)  
MORFOLOGIYASI VA BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**МОРФОЛОГИЯ И БИОЕЛОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ AGROTIS OBESA  
BOISDUVAL, 1829 (LEPIDOPTERA: NOCTUIDAE)**

**MORPHOLOGY AND BIOLOGICAL FEATURES OF AGROTIS OBESA BOISDUVAL,  
1829 (LEPIDOPTERA: NOCTUIDAE)**

**Botirov Elyor Arabboevich**  
Farg'onan davlat universiteti, katta o'qituvchi

**Annotatsiya**

*Maqolada Agrotis obesaning tarqalishi, morfologiq tavsifi va biologiyasi keltirilgan. Ozuqa ixtisosligiga ko'ra tor polifag, mezofil ekologik guruhiga mansub, mavsumiy aspekti bahorgi-yozgi-kuzgi tur. Ko'p uchraydigan turlardan bo'lib, ko'pchilik antropogen landshaftlarda keng tarqalgan.*

**Аннотация**

*В статье приведены распространение, морфологическое описание и биология *Agrotis obesa*. По пищевой специализации является узким полифагом, принадлежит к мезофильной экологической группе, по сезонному аспекту - весенне-летне-осенний вид. Одна из наиболее распространенных видов, широко распространённый в большинстве антропогенных ландшафтов.*

**Abstract**

*The article presents the distribution, morphological description and biology of *Agrotis obesa*. In terms of food specialization, it is a narrow polyphagm and belongs to the mesophilic ecological group; in terms of the seasonal aspect, it is a spring-summer-autumn species. One of the most common species, widespread in most anthropogenic landscapes.*

**Kalit so'zlar:** tamaki, zararkunanda, ozuqa o'simligi, tuxum, lichinka, kapalak.

**Ключевые слова:** табак, вредитель, пищевое растение, яйцо, личинка, бабочка.

**Key words:** tobacco, pest, food plant, egg, larva, butterfly.

**KIRISH**

Tangachaqanotli hasharotlar (Lepidoptera) turkumining tunlam kapalaklar (Noctuidae) oilasi 12 mingga yaqin turlarga ega bo'lib, hasharotlar sinfining eng ko'p turga ega oilalaridan hisoblanadi. *Agrotis* Ochsenheimer 1816 avlodi dunyo miqyosida 300 dan ortiq turlarni o'z ichiga oladi. Ular orasida tabiiy landshaftlar hamda antropogen ekotizimlarni afzal ko'radigan o'ziga xos ixtisoslashgan guruqlar, shuningdek, o'ta plastik evribiontlar va keng polifaglar, shu jumladan, qishloq xo'jaligi ekinlarining jiddiy zararkunandalarini mavjud. Jumladan, *Agrotis obesa* turi tamaki o'simligiga jiddiy iqtisodiy zarar keltiradi. Shundan kelib chiqib, mazkur turning populyatsiya ko'rsatkichlarini hamda ekotizimlar ozuqa zanjirida tutgan o'rni va ahamiyatini o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI**

*Agrotis obesa* Rossiyaning tangachaqanotli hasharotlar katalogiga (2019) kiritilgan [1].

Eronlik tadqiqotchilar Sh. Feizpoor va hammulliflari tomonidan tamaki tunlami kapalagining taksonomik holati va faunistik tahlili yoritilib berilgan (2014). Shuningdek ushbu tur Eron, Turkiya, Isroi, Turkmaniston va Kiprda ham qayd etilgan [3;8;9].

O'zbekiston entomofaunasining tunlam kapalaklar faunasini o'rganishga oid alohida tadqiqotlar Qizilqum cho'llari, Qoraqalpog'iston, Xorazm vohasi, Quyi Amudaryo okrugi hududlarining tabiiy hamda antropogen ekotizimlari misolida olib borilgan bo'lib, mazkur ishlarning natijalarida *Agrotis obesa* turiga oid ma'lumotlar ham uchraydi. Xususan, tadqiqotchi M.

## BIOLOGIYA

Bekchanovaning (2022) Quyi Amudaryo okrugi tunlam kapalaklarining faunasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida mazkur tavsifi yoritib berilgan [2].

Farg'ona vodiysi agrosenozlari zararkunanda hasharotlarini o'rganishga oid tadqiqotlarda ham *Agrotis* urug'inining ayrim turlari jiddiy zararkunandalar qatorida ta'kidlangan. Jumladan, X.Mustofoqulovning ishlarida (1992) Farg'ona vodiysida g'o'za, tamaki va shaftoli bog' agrosenozlari asosiy zararkunandasi hisoblangan kuzgi tunlamni (*Agrotis segetum*) miqdor zichligini entomofaglar vositasida boshqarish uslublari yoritib berilgan [4]. I.Zokirovning (2019) Markaziy Farg'onaning sabzovot-poliz ekinlari entomofaunasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarida *Agrotis obesa* sabzavot-poliz ekinlarida uchrashligi qayd etilgan [5].

## TADQIQOT OBYEKTI VA USLUBLARI

*Agrotis obesa* kapalagining faunasini o'rganish ishlari 2019-2023-yillar davomida Rishton, Qo'shtepa, Yozyovon tumanlari hududlaridagi agrosenozlarda olib borildi. Kapalaklarni yig'ish asosan kechalari, tungi yoritgichli moslama yordamida amalga oshirildi. Yig'ilgan kapalaklarni erkak va urg'ochi individlaridan 2 tadan na'munasi ajratib olinib, kolleksiyasi tayyorlandi. Yig'ilgan materiallarni aniqlashda entomologik aniqlagichlar va elektron kataloglardan foydalanildi [6;7].

Na'munalar Rishton tumani Navbahor qishlog'i (40°27'03"N, 72°03'32"E), Qo'shtepa tumani Do'rmon qishlog'i (40°30'27.9"N 71°37'24.9"E), Yozyovon tumani Eshonto'pi qishlog'i (40°23'57.3"N 70°29'40.9"E) dagi axoli tomorqalari va fermer xo'jaliklari tamakizorlardan yig'ildi.

**Tahlillar.** Olib borilgan tadqiqotlar hamda yig'ilgan namunalar asosida tamaki tunlaming ozuqa o'simliklari, morfologiysi va ayrim biologik xususiyatlari o'rganildi.

## Taksonomik o'rni:

**Order:** Lepidoptera Linnaeus, 1758

**Superfamily:** Noctuoidea Latreille, 1809

**Family:** Noctuidae Latreille, 1809

**Subfamily:** Noctuinae Latreille, 1809

**Tribe:** Agrotini Rambur, 1848

**Genus:** *Agrotis* Ochsenheimer, 1816

**Species:** *Agrotis obesa* Boisduval, 1829

## Sinonimlari:

- *Agrotis lipara*
- *Nivea Caradja*
- *Euxoa obesa*
- *Euxoa scytha*

## Umumi nomi:

- Tamaki tunlami

*Agrotis obesa* Shimoliy Afrika, O'rta yer dengizi, Kichik Osiyo, Markaziy Osiyo mintaqalarida keng tarqalgan. O'zbekistonda Xorazm vohasida (2022), Farg'ona vodiysining Markaziy Farg'ona mintaqasida (2019) tarqalganligi qayd etilgan (2019). Tadqiqotlarimiz natijasida Janubiy Farg'onaning tekislik hududlari madaniy senozlarida ham tarqalganligi aniqlandi (Rishton tumani Navbahor qishlog'i). Qishloq xo'jaligi ekinlaridan tamaki o'simligiga sezilarli zarar yetkazadi.

**Tutilgan joyi va muddati:** Rishton tumani Navbahor qishlog'i, aholi tomorqasi (M. Shermatov, E. Botirov 03.08.2021); Qo'shtepa tumani Do'rmon qishlog'i, fermer xo'jaligi ekin maydoni (E.Botirov, 10.08.2022), Yozyovon tumani Eshon to'pi qishlog'i aholi tomorqasi (E.Botirov, 12.05.2023).

**Ozuqa o'simligi:** *Nicotiana tabacum* L.,1753, *Solanum tuberosum* L.,1753, *Solanum lycopersicum* L.,1753, *Medicago sativa* L.,1753.

## Morfologik tavsifi:

Tamaki tunlami qurtining boshi silliq, yaltiroq, sarg'ish-qum rangga ega. Tanasining yuqori tomoni och kulrang, tana uzunligi 28-36 mmni tashkil etadi (1-rasm).




a-bosh qismi, b-ko'krak qalqoni, c-nafas teshiklari, d-qilchalar, e-anal qalqoni,

1,2,3-ko'krak oyoqlari, 4,5,6,7,8-qorin oyoqlari. *Agrotis obesa*

1-rasm. Tamaki tunlami qurtining tashqi tuzilishi.

G'umbagining uzunligi **18-22 mm**, rangi qizg'ish-jigarrang, uchki qismida ikkita tikansimon o'simtasi joylashgan (2-rasm).



<i>frons-peshona ocelli-ko'z andibular-ustki jag' maxillae-pastki jag' labrum-ustki lab labium-ostki lab antenna-mo'ylov</i>	<i>foreleg-oldingi oyoq midleg-o'rta oyoq hindleg-orqa oyoq hindwing-oldingi qanot forewing-orqa qanot</i>	<i>pronotum-ko'krakning oldingi qismi mesonotum-ko'krakning o'rta qismi metonotum-ko'krakning orqa qismi stigma-nafas teshiklari genital suture-jinsiy teshigi anal suture-anal teshigi A1,...A10 -qorin qismini segmentlari cremaster-tikan</i>
--	--	--


2-rasm. Tamaki tunlami g'umbagining tashqi tuzilishi.

Kapalak tanasini uzunligi 18,5 mm, mo'ylovleri uzunligi 12 mm, xartumi uzunligi 11 mm, oldingi qanotining uzunligi 16 mm, kengligi 9 mm, orqa qanotining uzunligi 12,5 mm, kengligi 10 mm, qanotlarini yozganda kengli 39 mm tashkil etadi.

Kapalakning bosh va ko'krak qismi sariq rangda, qorin qismi esa kulrang, oldingi qanotlarining rangi sarg'ish yoki och kulrang. 1-ko'ndalang chizig'i burma shaklida bo'lib, qanotining pastki qismida chiziqlar tishsimon ko'rinishda bo'ladi. 2-ko'ndalang chiziq deyarli dumaloq nuqtadan boshlanadi, qanotning pastki qismida tashqariga kuchli egilgan holatda bo'ladi.

## BIOLOGIYA

3-ko'ndalang chiziqlari buyraksimon dog'idan o'tib tishsimon tomirlarni hosil qiladi, tashqi tomondan chiziq bilan kesilgan. Qanotining oldingi chetida kulrang rangdagi dumaloq dog', qanotining uchiga yaqin qismida esa buyraksimon qora dog', qanotining ko'krak qismiga yaqin joyida kulrang dumaloq va xanjar shaklidagi keng qora dog'lari joylashgan. Orqa qanotlari oq rangda, urg'ochilarda esa pastki tomoni biroz qoramtilir bo'ladi(3-rasm).



<p><i>Collum</i>-bo'yin  <i>Antennae</i>-mo'ylov  <i>Thorax</i>-ko'krak  <i>Apex</i>-qanotini uchi  <i>Costa</i>- qanotining oldingi chekkasi  <i>Tornus</i>- qanotining orqa burchagi  <i>Basis</i>- qanotining tubi yoki ildiz  <i>Termer</i>-qanotini tashqi chekkasi  <i>Dorsum</i>-oldingi qanotini ichki chekkasi  <i>Inner margin forewing</i>-oldingi qanotining ichki chekkasini oldingi qismi  <i>Inner margin hind wing</i>-orqa qanotining ichki chekkasini oldingi qismi  <i>Anal angle</i>-anal burchagi  <i>Anal margin</i>-anal chegarasi       </p>	<p><b>BL</b>-Baseline (asosiy chiziq)  <b>ML</b>-Median line(median chiziq)  <b>PmL</b>-Postmedian line (postmedian chiziq)  <b>ML</b>-Marginal line-(chegara chizig'i)  <b>PgL</b>-Pregmarginal line (pregmarginal chiziq)  <b>Wsh</b>-Wedge-shaped mark (xanjarsimon belgi)  <b>Sr</b>-Small round spot (yumaloq belgi)  <b>Ks</b>-Kidney spot (buyraksimon belgi)  <b>Sm</b>-Sagittal mark (sagittal belgi)  <b>Db</b>-Disc brand (disk markazi)  <b>EM</b>-Elliptical mark (elliptik belgi)</p>	<p><b>CV</b>-Costal veins (kostal tomir)  <b>SeV</b>-Subcostal veins (subkostal tomir)  <b>R</b>-1,2,3,4,5-Radial veins (radial tomirlar)  <b>M</b>-1,2,3-Medium veins (o'rta tomirlar)  <b>Cu</b>-1,2 -Cubital vein (kubital tomir)  <b>A<sub>1</sub></b>-Anal vein (anal tomir)  <b>Disc zone</b>-Disk maydoni  <b>Fringe zone</b>-Chekka maydon  <b>Postdiscal zone</b>-Postdiskal maydon  <b>Basal zone</b>-Bazal maydon  <b>Cell</b>-Bo'sh maydon</p>
--	---	--

3-rasm.Tamaki tunlami kapalagining tashqi tuzilishi.

### Biologiyasi.

Polivoltin ya'ni bir necha avlod berib rivojlanadigan tur hisoblanib, kapalaklarining uchish vaqtiga avgust-sentyabr oylariga to'g'ri keladi. Qurtlarining faol davri aprel-avgust. O'simliklardan *Nicotiana tabacum*, *Solanum tuberosum*, *Solanum lycopersicum*, *Medicago sativa*ning ildizini zasarlaydi. Ozuqa ixtisosligiga ko'ra tor polifag, mezofil ekologik guruhiga mansub, mavsumiy aspekti bahorgi-yozgi-kuzgi tur. Ko'p uchraydigan turlardan bo'lib, ko'pchilik antropogen landshaftlarda keng tarqalgan, qurtlik bosqichida qishlab qoladi.

### XULOSA

Farg'ona vodiysi sharoitida tamaki tunlami asosan, antropogen landshaftlarda keng tarqalgan. Mavsumiy aspektriga ko'ra bahorgi-yozgi-kuzgi, tur mezofil ekologik guruhiga mansub bo'lib, ozuqa spektriga ko'ra tor polifagdir. Tamaki tunlamining qurti, g'umbagi hamda kapalak bosqichidagi morfologik tuzilish belgilari yoritib berildi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Синёв С.Ю. Каталог чешуекрылых (Lepidoptera) России (Второе издание). – Санкт-Петербург: Зоологический институт РАН, 2019. - 448 с.
- 2.Бекчанов Х.Ў. Кўйи Амударё округи табиий ландшафтларида тунламларнинг (Noctuidae) фаунаси, биологияси ва экологияси: Биол. фан. номз.дисс. –Тошкент, 1998. - 113 б.
- 3.Горбунов П. Ю. Высшие чешуекрылые (Macrolepidoptera) пустынь и южных степей Западного Казахстана. Обзор фауны. –Екатеринбург: И.П. Лисицына, 2011. –192 с.
- 4.Мустафакулов Х. Основные вредители в агроценозах важнейших сельскохозяйственных культур Ферганской долины и управление их численностью энтомофагами: Автореф. дисс. ... канд. биол. наук. –Баку, 1992. - 21 с.
- 5.Зокиров И.И. Марказий Фарғонанинг сабзавот-полиз экинлари хашаротлари фаунаси ва экологияси // Биол. фан. докт. дисс.(DSc) автореф.-Тошкент. – 2019. – Т. 59.
6. Botirov E.A. Janubiy Farg'ona agrotsenozlari tunlam kapalaklari (Lepidoptera: Noctuidae) faunasi va ekologik xususiyatlari //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – S. 1276-1283.
7. Shermatov M.R., Botirov E.A. Tunlam kapalaklarning (Lepidoptera: Noctuoidea) ozuqa spektriga oid //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2022. – Т. 10. – №. 11. – S. 78-84.
8. <http://dx.doi.org/10.11646/zootaxa.3771.1.1>